



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTAMAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
“TARIX” KAFEDRASI

REFERAT

MAVZU: RESPUBLIKADA SOVETLAR TOMONIDAN O'TKAZILGAN
“HUJUM” HARAKATI VA UNING OQIBATLARI.

2013/2014 O'QUV YILI



Bajardi: III kurs “301” guruh talabasi Pardayeva Z.

Tekshirdi:

Dot. S.R.To'rayev

Toshkent-2013

Mavzu: Respublikada Sovetlar tomonidan o`tkazilgan “Hujum” harakati va uning oqibatlari.

Mundarija

Kirish

§1 “Hujum”harakati boshlanisi arafasida Respublikadagi ijtimoiy,iqtisodiy,siyosiy ahvol.....	8-22.
§ “Hujum ”harakatidan kozlangan maqsad va sabablar.....	23-41.
§3 “Hujum”harakatining mahalliy xalq hayotiga tasiri.....	42-51.
§4 “Hujum” harakatining keltirib chiqargan oqibatlari.....	52-61.
Xulosa.....	62-63.
Foydalanilgan adabiyotlar.....	64-65.
Ilovalar.	

Kirish

Respublikada Sovetlar tomonidan o'tkazilgan "hujum" harakati va uning oqibatlari bu mavzuni ochib berishi bu haqida malumotlarni 1917-1930 yil davomida bo'lib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda yoritiladi.

"Hujum" harakati shu davrdagi ayollar haqida yaqqol va ochiq oydin yoritib berib o'z navbatida bu harakat sovetlar tomonidan ularga olib keladigan mafaat va foyda haqidadir ham shu davrda turli qarashlar manaviyat madaniyat milliy qadryatlarni yo'q qilishga qaratilgan harakatdir. Ayollarni o'z huquqlarni bilishiga jalb qilish bilan bir qatorda sovetchilar o'z manfaatlari bo'lib tayyor ishchi qilib olish va ozodlik uchun kurashayotganlarga qarshi qo'yeb ularni ko'z bo'yamachilik bilan bu harakatchilikni yomon ko'rsatishni ham maqsad qildi va bunga hujm orqali ham erishmoqchi bo'lishdi "Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek tabiatda ham jamiyatda ham uchun bo'shlig'i mumkin bo'lmaganidek mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishga also yo'l qo'yeb bo'lmaydi deya takidlab o'qtirganlaridek"¹ o'tmishda bo'lgan voqealarni to'g'ri idrok qilish kerakligi bu hujum harakatiga ham mana shu so'zlarni keltirib o'zimizga fikr chiqarishimiz ham mumkin. Bu harakatga ham o'z davrida har xil qarashlar orqali yondashilgan SSSR davrida o'z qarashlarini maqullab o'zlarini qilgan ishlarini ko'klarga ko'tarishgan bo'lsa mustaqillikdan keying adabiyotlarda bu sovet g'oyachilarining g'oyasidan tubdan farq qiladi. Biz esa barcha ishonchli malumotlar orqali esa eng to'g'ri yo'nalish asosida o'rganishimiz maqbuldir.

Tarixiy xotiralarni voqealarni to'g'ri idrok etib milliy mafkuramizdan ajralmaslik va shunga tayanib bilim va fikr olish muhimdir. Shu borada "prezidentimiz I.A.Karimov haqqoniy takidlaganidek manaviyatini tiklash tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan ham past sezmay boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga albatta tarixiy xotira insonga albatta tarixiy xotira kerak deb takidlab otganlar albatta bu so'z"²lar asosida har bir xalqning o'z o'tmishidan faxrlanib yashashi kerakligi haqida takidlangan ham bizning tariximizda o'chmas iz qoldirgan voqealardan biri hisoblanadi. O'quvchilar talabalarga bu harakatni haqqoniy va odilona yetkazibberish barcha fikr hodisalarni yetkazib ochib berish

¹I.A.Karimov- Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. T: 1998 yil 7-bet

²I.A.Karimov.-Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.1998 8-bet.

bu yetuk mahorat va pet texnologiyani talab etgani uchun har bir o`qtuvchi bu mavzuga astoydil tayyorlanishi enternet adabiyotlardan oqilona o`z o`rnida foydalana olib turib hujum harakatining sabablari maqsadi va oqibatlarini to`g`ri yetkazib berish talab etiladi.

“Shu bilan birga musulmonlarga ham qarshi chiqib dinni taqiqlab yo`q qilib yuborishga ham harakat qilishdi musulmonlarga qarshi chiqib ularni taqib taziqqa olishdilar.Madrasa, masjidlarni hudosizlar uyiga aylantirishib ular din xalq uchun afyundir degan g`oya asosida dindorlarga tasir o`tgazdilar.Shu sabablarni rukach qilib ruhoniyy va dindorlarni qirib bitirish yo`lini tutib ayollar xotin qizlarni ozodlikka chiqarish bahonasida “Hujum” harakatiga kirishdilar.³

“Prezidentimiz I.A.Karimov Musulmon madaniyatidagi xalqni ruhiy tanazzulini chiqarish mumkin bo`lgan asosiy yo`nalishdir erkinligini islom bilan chambarchars bog`liq milliy urf odatlarga rioya qilish erkinligini yaratib berishdan iborat edi.

Biz uzoq orziqib kutgan anashu erkinlikni so`zda emas amalda taminladik.<sup>4</sup> deb takidlagancha bor .Ming shukurki buy o`lni ham prezidentimiz orqali bosib o`tib shu kunlarga yettik.

Kamunislar esa bu diniy etiqotni poymol qilmoqchi bo`lgandilar vaholangki islom dini dunyodagi eng ilg`or odamlarga mehr va shavqat ulashuvchi ularni haq yo`lga boshlovchi halqlarga tinchlik omonlik go`zallik va muhabbatga davat etuvchi ilohiy talimotdir.Bu esa bizning xalqimizning azaliy madaniyati urf odati bilan qorishib ketgandir.

“Xalq vadaniy merosini vs tarix haqiqatini tiklash milliy urf odatlar va ananalarini rivojlantirish yaqin o`tmishdagi manaviy ruhiy kushandalik mafkurasiga zid holda islom dinining yuksak manaviyat va madaniyat vositasi ekanligi u odamlarni insofga dinoyatga o`zaro totuvlik va hamjihatlikka davat etuvchi

Qurol ekanligini I.A.Karimov tomonidan aytilgandi va to`g`ri baholandi.⁵deb takidlab o`tilgan.

³N.Jo`rayev Sh. Karimov-O`zbekiston tarixi 2.T:2011. 414bet.

⁴“Xalq so`zi”gazetasi 1991-yil 15-avgusdagi sonidagi nutuqlari.

⁵N.Jo`rayev.Sh.Karimov- O`zbekiston tarixi 2T:2011. 687bet.

§1 “Hujum” harakati boshlanishi arafasida respublikada ijtimoiy- iqtisodiy siyosiy ahvol.

“Hujum” harakati XX asr 20 yillarning 2- yarmida “Hujum” nomi bilan boshlangan harakat oʻz mohiyati bilan oʻzbek xotin- qizlarini tutqunlikdan paranji zulmatidan ozod qilishga qaratilgan edi. Turkiston sharoitida oʻziga hos oʻta murakkab hususiyatlarga ega boʻlgan bu ijtimoiy-siyosiy masala hukumron partiya tomonidan hech bir oʻylamasdan mahalliy shart sharoitlarni xalqning ananaviy udumlari urf odatlarini tiborga olmasdan kutilmagan holda amalga oshirildiki bu esa oʻlka hayotida koʻplab noxush oqibatlarini keltirib chiqardi.

“Hujum” harakati boshlanishi arafasidan oldingi hayot hama qoniqarli darajada ham emasdi. Bunga bir nazar soladigan boʻlsak shoʻro hukumati va kommunistik partiya mustamlaka asoratidagi oʻlka xalqlarini qul oʻrnida ishlatib hisobsiz daromad olishning eng maqbul shakli boʻlgan jamoatlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun ayyorlik va ustamonlik bilan uzoq tayyor guruh ishlarini olib bordi. Bu borada amalga oshirilgan yer suv islohati 1-bosqich 1920-yilning boshlarida oʻtqazildi va oʻlkada amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi munosabati bilan malum muddatga toʻxtab qoldi 2-bosqichda esa 1925-1929-yillarni oʻz ichiga oladi.

Yer-suv islohoti 1925-1929 yillar oʻtkazilgan. Bu islohoti Oʻzbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qoʻmitasining 1925-yil 2-dekabrda Yer suv islohati toʻgʻrisidagi dekretlar asosida amalga oshirildi.

Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligini jamoatlashtirish sobit ittifoqda boʻlgani singani 1927-yilning 19-dekabrda boʻlib oʻtgan VKP(b) XV-qurultoyidan soʻng rasmiy tus oldi. Ammo bu oktabr Harbiy toʻntarishidan soʻng dastlabki jamoa xoʻjaliklari vujudga kela boshladi va shoʻrolarning jamoalashtirish siyosati olib bordilar, bunda ommani qoʻrquv va vahimaga soldi. Ular oʻz xoʻjaliklarini qarovsiz tashlab qochdilar chorva mollarni soʻydilari yoki bozorga olib borib arzon garovga sotdilar. Natijada Oʻzbekistonda qoramollar 1930-yilning Oʻzida 60-mingga kamayib ketdi “Jamoalashtirish” davomida amalga oshirilgan bunda adolatsizlik, zoʻravonlik va odamlarning qadr-qimmatini oyoq osti qilish siyosati xalq ommasi shoʻro hukumatidan noroziligining mislsiz darajada kuchayishiga sabab boʻldi va bu urush xafini ham tugʻdirdi”.⁶ Butun SSSR hududida boʻlgani singari Oʻzbekiston ham bu ishlarga faol yeng shimarib kirishdilar. Negaki yuqoridan belgilangan har qanday amru-farmon va direktiv koʻrsatmalar bu yerda

⁶Q. Usmonov, M. Sodiqov - Oʻzbekiston tarixi. T:2003. 94-95 betlar.

ham bu yerda ham soʻssiz bajarilishi hayotda joriy etilishi majburiy hisoblanardi. Buning uchun tegishli shart-sharoit va imkoniyatlari bormi yoʻqligi yoxud mahalliy aholining bu tadbirlarini bajarishga tayyorlanganligi qay darajada ekanligi etiborga olinmasdi.

Mahalliy hududlarning oʻziga xos xususiyatlari milliy jihatlari turmush tarzi koʻrinishlari ham inobatga olinmadi. Xoʻsh Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligining 20-yil manzaralaridir. Bu keying ahvolni yomonlashuviga olib keldi.⁷

“Umuman 1925-1926 yillari ichida boylar yirik va ruhoniylarning 45mingga yaqin individual xoʻjaliklari batamom tugatildi. Koʻpgina xoʻjaliklar tasarufidagi ortiqcha yerlar tortib olingan edi. Bu yerlar qayta taqsimlanish Ularning qismi yersiz yoki kam yerli dehqon xoʻjaliklariga mulk qilib berildi. Buning natijasida batrak kambagʻallar toifasi islohatdan oldin barcha dehqonlarning 76% tashkil qilgan boʻlsa islohatdan soʻng ularning soni 39% qisqardi. Ularning turmushi ularning hali v va moliyaviy zaifligi ishlab chiqarish kursoratgichlarining pastligi koʻzga tashlanib turardi. Qishloqda yoppasiga jamoalashtirish siyosatini ischil amalga oshirish uchun Oʻzbekison partiya sovit xoʻjalik yoshlar xotin-qizlar va boshqa jamoat tashkilotlari toʻla safarbar qilindi. Markaz buyrugʻi va dastural amal koʻrsatmasini quloq qoqmay bajarishni oʻzlari uchun katta ishonch yorlgʻi deb bilgan unga koʻr-koʻrona asoslangan maxaliy raxbarlar dehqonlarni zudlik bilan kalxozlarga majburan kiritishni 1929-yillarning 2-yarmi 1930-yil boshlarida avj oldirib yubordilar. koʻp qishloq tumanlarida hokimyat organlarining zoʻrovonligi oʻz boshimchaligiga qarshi aholi kiskin norozilik bildirib turli harakatlar uyushtirishga majbur boʻldi. Republikaning oʻziga toʻq bozorga Tovar gʻalla yetishtirish berishga qodir boʻigan son-sanoqsiz dehqon xoʻlaliklari bor narsasidan maxrum boʻlib haqsiz-huquqsiz holda oʻz oyla azolari qarindosh –urugʻlari bilan uzoq hududlarga (sebir ukraina, qozogʻiston yoki yangi oʻzlashtirilayotgan choʻllari toʻqay zor qamishzor yerlarga badargʻa qilindilar ularning koʻplari

⁷N.Joʻrayev. SH.Karimov-Oʻzbekiston tarixi II –tom. T:2011

bukimsasiz qamishzor yerlarga badarg'a qilindilar Ularning ko'plari kimsasiz ho'rlangan joylarning og'ir shart sharoitlariga dosh berolmay turli kasalliklarga chalilib ochlik muhtojlik azobidan bevaqt ko'z yumib ketdilar.

Ming-minglab qishloq oilalari bunday xavf-xatarning bo'lishini oldindan his qilib o'z kindik qonlari to'kilgan muqaddas zaminni tark uzoq begona yurtlarga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar. ularning ko'plari uzoq yillar xorijiy ellarda umirguzaranlik qilib jna yurt sog'inchi bilan unga talpinib yashab o'tdilar. Mamuriy tazyiq oshkora zo'ravonlik iqtisodiy terror usullar va shu kabi tasir choralarining uzluksiz qo'llanilishi orqasida kalxoz qurilishi sezirarli suratlardan rivojlantirilib borildi. Bu davrga kelib paxtachilik tumanlardan jamoalashtirish asosan shug'illangan ularning ekin maydonlari 1929-yildagi 530 gektardan 1932-yilga kelib 928 ming gektarga ko'paygan edi. Bu yerlarni bo'lib berish xotin qizlar orasidan ham olib borilish rejalashtirilgan edi.⁸

Yer suv islohati xotin qizlar teng huquqligi uchun kurashda muhim qadam bo'ldi chunki bu islahatga qadar xotin qizlar yerga egalik qilish huquqidan mahrum edilar Yer suv islohati xotin qizlarning iqtisodiy huquqlarini tan olibgina qolmay balki ko'p xotinlilik va qalin to'lash odatiga zarba berdi. Amalda nikox bo'yicha suvga egalik qilish odati yo'qoldi. Mana shu islohat natijasida 500 ortiq o'zbek ayollari yer olib o'zlariga xo'jalik tuzdilar. Bu xo'jliklar urug'lik qurol asbob bilan taminlandi.⁹

Ammo bu ishlar sekin borayotganday tuyilib soved hukumatiga yuqorida takidlab o'tgan mana shu ijtimoiy iqtisodiy siyosiy omillar "hujum" harakatini boshlashga va bu harakatni jadal tezlashtirishga olib keldi. Shu yo'sinda sovetlar "hujum" harakatini boshlab bu ming minglab musulmonlar qismatining xalqning qismatining keskin hal etilgan katta ijtimoiy o'zgarishlar davri edi. Mana shu holat va bu davr o'zbekiston xalqlari o'tmishida o'chmas iz qoldirdi.¹⁰

1927 yil 8 martda ommaviy metinglar boshlandi. Ularda 100 mingga yaqin xotin qiz paranjilarini gulxanda yoqdilar. "Hujum" jarayonida xotin qizlar ishlab chiqarishga ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotga jalb etilib ular bolalar bog'chalari, klublar, maktabar, ambulatoriyalar, konsultatsiyalar ochib berishni talab qiladilar. Xotin qizlar paranjisini tashlamagan ayollarni harqorat qilganligi uchun

⁸Q.Usmonov. M.Sodiqov –O'zbekiston tarixi. T -2003.

⁹O'zbekiston SSR tarixi III tom. T.

¹⁰O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davri O'zbekiston yangi tarixi 2 T. 2000

javobgarlikka tortilgan kishilarning ishlari yuzasidan sud organlarining tezroq hukum chiqarib berishlarini talab qila boshladilar. 1927-yil iyuliga qadar O`rta Osiyo respublikalari bo`yicha ishlab chiqarishga 47 ming xotin qiz jalb etildi. Maalliy sovetlaga deputat qilib saylangan. O`zbekiston xotin qizlarning soni 1926-yil 50 ming 1927-yil 124 mingga yetgan.¹¹

Buh “hujum” O`zbekiston xotin- qizlarning hayoti asrlar osha musulmonchilik qonuniyat va ananalariga asosiga qurilgan edi. Shu bois sovet hukumati o`rnatilgach qisqa vaqt ichida ularning yemirib tashlab mutlaqao yangi ananalarni unga muvofiq ravishda xotin-qizlarning yaralish haqida tushunchalaridan butunlay tezlikda voz kechirib bo`lmasdi. Shu nuqtaiy nazardan qaraganda har xil savol tug`ulishi mumkin. O`zbeklar “hujum” harakatlarini boshlash ishi turmushga “hujum” qilish yani o`zbek xotin qiz shu ozodlikka chiqarish zarurmidi degan qarash ham paydo bo`Ladi. To`g`ri xa zarur edi. Biroq bu bolsheviklar tanlagan teazkor yo`l emas balki asta sekin bosqichma bosqich o`z mentalitetimizdan kelib chiqqan holda.Bu barcha tadbirlar o`zbek xotin qizlari turmush tarziga xos xususiyatlarga milliy ananalarga mutanosib holda olib borilgan. O`sha paytlar hech kim paranji tashlash haqida so`z yurutmas edi. Faollar koproq ishontirish usuliga tayanishardi. Ayollar yaratuvchanlik va jamoatchilik ishlariga jalb etish borasida ancha yutuqlarga erishildi.Taajublanarlisi shundaki totalitar rejim bu boradagi ishlar sekin asta borayotganidan qoniqmasdi.Uni suniy ravishda tezlashtirish maqsadida 1927-yil bahorida „hujum” kompaniyasi boshlab yuborildi va unga zarbdor safarbarlik xususiyati berildi. Bu jaryonda bolsheviklar ruhiy omillarni islom omilni mutlaqo hisobga olmadi. Holbuki xotin qizlarning paranjisiz yurish ishtimoiy muhitga to`g`ri kelmas edi. Bunda na partiya sovet hodimlari na oddiy odamlar tayyor edilar.¹²

Raxbar kadirilar partiya organlarining taziqi bilan o`z xotinlarini paranji yoqadigan joylarga yetaklap keladida ertasiga yana paranji yopinishga majburladilar. “Hujum” kompartiyasi jarayonida bolsheveklar zo`ravonlik ma`muriyyo`l bilan yuz ming ayollarning paranjisini tashlattirdi. Lekin bu tezlashtirish yomon oqibatlariga olib kelishni o`ylamadilar .Hujum harakatiga qarshi chiqqan ayolga zulm qilina boshlandi.¹³

¹¹ Entiklopediya – 467- 468 betlar

¹²D.A.Alimova. R.X. Karimova-O`zbekiston tarixi.

¹³.S.Usmonov K.To`laganov –o`zbekiston tarixidan universal qo`llanma T.2013.

1927-1928yil o'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq ayollar o'z jonlaridan judo bo'lganlar¹⁴

Ayollarni erksizlikdan qutqarish bu darajada fojiali bo'lmisligi mumkin ham ediku Buning uchun ularga avvalo shart-sharoitlar yaratib berib o'zbekligimiz doirasida bosqichma bosqich amalga oshirish kerak edi. Maskur masalani eng avvalo jamiyat a'zolari fuqoralari orasida keng ko'lamli tushintirish marifiy yo'llar orqali tinch hal etish ediki. (dastlab jadidlar F.Xo'jayev, Fitrat, Cho'lpon, A. Avloniylar ham bu masalani hal etishni o'z oldiga maqsad qilgandilar. Shu maqsadda tashkil etilgan respublika, viloyat, tuman, shahar va quyi tashkilotlar qoshidagi xotin-qizlar bo'limlari dastlab umuman to'g'ri ish olib borgandilar. Bu yerda gap paranja tashlash ustida emas balki xotin-qizlar uchun mahsus klublar, artellar, do'konlar, savodxonlik kurslari ochish haqida borardi. Bu hildagi tadbirlarning ko'plab o'tqazilishi natijasida xotin-qizlar ijtimoiy foydali mehnatga jamoatchilik ishlariga tortila boshladi va ming afsuski bu dastlabki yutuqlar hususan ayollar jamoat joylariga paranjida kelishlari mustabit tuzimini also qoniqtirmadi va ularga yoqmdi.¹⁵

“Shu bilan birga mavsumiy harakat ko'pgina salbiy oqibqtlarning yuz berishiga ham sabab bo'ldi. Maskur jarayoni o'tkazishda yo'l qo'yilgan jiddiy hato va kamchiliklar halqning asriy udumlari o'zbek ayyolarga hos sharqona odob ahloq tamoyillarining buzilishi bu nozik sohada odamlarning or nomusini mensimaslik holler real hayotda ko'plab fojiali voqealarni keltirib chiqardi. Eng achinarlisi shuki “Hujum” harakatida faol ishtirok etib unda tashabbuskor bo'lgan butun borligini ongli hayot faolyatini satsializm ishiga partiyaning yolg'on g'oyalar chinligiga ishongan qancha ilg'or xotin-qizlar keyinchalik Stalench qatag'on qurboni bo'ldilar. Bularga Tojixon Shodiyeva, Sobira Xoldoriva, Xosiyat singari fojiyali va tahlikali nochor qismatlarni misol keltirish mumkin Joylarda xotin qizlar o'ldirish ko'plab ro'y berdi. 1928 yillar ko'rsatgichiga qarashni o'zi kifoyadir.¹⁶

¹⁴D.A. Alimova R.X va h.k. –o'zbekiston tarixi(1917-1991) Toshkent: 179....181 betlar.

¹⁵Usmonov M. Sodiqov – O'zbekiston tarixi T 2003. 109..111 betlar

¹⁶K.To'laganov – O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma T.2013. 381..384 betlar

Joylarda xotin qizlar o'ldirish ko'plab ro'y berdi. 1928 yillar ko'rsatgichiga qarashni o'zi kifoyadir.

Xush bu "hujum" harakatida paranji tashlash ayollarga yoqdmni yoki uni aksi bo'ldmi. Bu harakatga bazi bir ayollar qarshi bo'ldi bazilarini holisona aytganda ular bu hursandchilik bilan kutib oldilar. Chunki ochiq yurish yoriq olamni ko'rish ilim olish erkaklar bilan teng huquqli bo'lish ularning asriy orzulari edi. Shu yo'sinda takidlab o'tish zarurki bu harakat barcha xotin qizlar shoshma shosharlik bilan mamuriy yetakchilik yo'li bilan amalga oshirildi. Shu bois unga qarshi chiqqan barcha xotin qizlar erkaklar qirib tashlandi. Paranjini majiburlab tashlatish unga qarshi chiqqan ruhoniylar dindorlarni ham jazolab dini butunlay taqiqlab qo'yildi.¹⁷

Qurbon hayiti, Ro'za tutish, Navro'z kabi qadryatlarimiz yo'qga chiqarilib taqiqlab qo'yildi. Bolalar bog'chasidan tortib oily o'quv yurtlarida atiezim ruhida tarbiyalash darsliklari o'quv qo'llanmalar ishlab chiqildi.¹⁸

Xullas sho'ro hukumati va kompartiyasi islom dinini o'zini asosiy raqibi deb bildi va unga qarshi mutassil shavqatsiz kurash olib bordi. O'zbekiston adabiyoti va sanati gazetasida qayd etilishicha 1929- 1939- yil faqat birgina Turkiston hududining o'zida ming masjid va madrasalar yoqtirilib yuborilib yoki buzdirilgan shayxlar imomlar va boshqa din arboblari qatag'on qilingan chunki ular ham ayollar paranji tashlashiga qarshi chiqishdi. Xotin qizlarni bo'ysundirmaslikga chorladi. Shu boisdan ham bu sovet hukumatga yoqladi va ularni hatto ayrimlarini isyonchi dushman sifatida ko'rsatildi.¹⁹

"Hujum" harakati boshlanishi oldidan ham "Hujum" harakati boshlangandan keyin ham ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy hayot juda tang holda edi. Bu harakat bilan barcha ayollarni paranjini yechtirish uchun juda harakatlar olib borib tezlashtirish uchun harakatlar qilganlar vaular ijtimoiy iqtisodiy siyosiy tasir orqali harakat qilganlar.

¹⁷N.Jo'rayev, Sh. Karimov- O'zbekiston tarixi 2.T. 2011 413...416 betlar.

¹⁸O'zbekiston tarixidan materiallar. Andijon 2004 422...427 betlar.

¹⁹N.Jo'rayev, SH.Karimov –o'zbekiston tarixi x2 T.2011 414.....415 betlar.

2.” Hujum” harakatidan ko`zlangan maqsad va sabablar

“Hujum” harakati 1927-yil 8-martdan boshlashga qaror qabul qilingan bo`lsa hujumga kirishishga katta tayargarlik ishlari amalga oshirildi. Shuning uchun ham kompartiya o`tkazish masalalari partiya komitetlari peurumlarida kasaba sayuzlari aktivlarida xotin qizlar va dehqonlar majlislarida hamda komsamol tashkilotlari-buyurolarida muhokama qilindi.”²⁰

Xotin qizlar masalasi insoniyat tarixida hamisha o`ziga xos murakkab muammo bo`lib kelgan. Millionlab turkiston ayollari qismatini o`z ichiga olgan bu ijtimoiy-siyosiy masalalarni 20-yillarning 2-yarmida bolshiveklar o`z andozalari asosida keskin hal qildilar. Turkiston xotin-qizlarning hayoti qadimdan musulmonchilik qonuniyatlari va an`analari asosida qurilgan bo`lib sovet davrida ana shu diniy qadiryatlar va ananalar “Hurolat” sifatida qoralanib kelindi. Ananalarimizdagi, qadiryatlarimizdagi milliy ayollarga bo`lgan hurmat va ezoqlash sifatleri mutlaqo unitildi sovet hukumati o`rnatilgach ayollarni butunlay yangi avlodini ularni faqat oilani o`ylaydigan shaxslar emas balki ko`proq jamiyat ijtimoiy- siyosiy hayotida kerkalar bilan teng asosda faol ishtirok etishni istaydigan shaxslar qilib tarbiyalash asosiy vazifa qilib qo`yildi. Oktabr to`ntarilishidan so`ng sovet davlati Turkiston xotin-qizlar teng huquqliligini taminlash kabi masalalar bo`yicha bir qator qonun va yo`l- yo`riqlarni qabul qildi. Lekin bu masalalar jamiyatni faqat sovetlar davridagina qiziqitirdi deyish hato bo`lardi .XX asr boshlarida o`zbekistonda paydo bo`lgan milliy taraqqiy parvar harakatlar dasturida ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo`lishi va ijtimoiy hayotda o`z o`rnini egallash masalasi o`z o`rnini topgan edi.²¹

Balog`atga yetmagan qizlarni erga bermaslik qarorlari qabul qilindi. 20-yillar tashkil etilgan xotin-qizlar bo`limlari bu ja bxada umuman olganda to`g`ri ishlarni amalga oshirgandilar har bir xonadanga kirib tushintirish ishlari olib bordilar maxsus xotin- qizlar klublari artellar do`konlar tashkil etdilar bu yerarda xotin-qizlar hech qanday qarshuliksiz tikish savdo –sotiqni o`qish yozishni o`zganish

²⁰Entiklopedya 467...468 betlar

²¹. O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida o`zbekistonning yangi tarixi 2.T. 2000. 375....386 b.

bilan shugʻillanishardi. Gap shundaki bu totalitar rejim bu borada ishlardan qoniqmadilar²²

Oʻrto Osiyo respubliklari kompartiyalari M.K. larning 1927-yili 31-yanvarda chiqargan murojati xati katta ahamiyatga ega boʻldi. Mazkur murojatda xoyin-qizlarning sovet davlatini boshqarish va xalq- xoʻjaligini yuksaltirish ishida mehnatkash erkaklar bilan bir safda turishi uchun kurash partiyaning asosiy vazifalaridandir deb takidlandi.²³

Sharqning mehnatkash xotin-qizlarni ozodlikka chaqirish yuzasidan qonunlar chiqarishga jalb qilish va partiya qabul qilish Milliy rayon va oblast xotin-qizlarni ozod qilishda . RKP.(v) .X va XII siyozdalarining qarorlari gʻoyat katta ahamiyatga ega boʻldi. Syezlar partiya va xalq oldiga qisqa muddat ichida mamlakatimizning ilgari ezilib kelgan xalqlarning amaldagi notengligini yoʻqotish vazifasini qoʻydi. Shunda qilib sharq xotin- qizlarini ozod qilish chor Rassiya sobiq mustamlaka xalqlarning amaldagi notengligini tugatish sohasida partiya olib borgan juda katta ishlarning tarkibiy qismi boʻlib qoldi “Ishchi va dehqon Xotin- qizlar orasidagi ishlar toʻgʻrisida” degan mahsus revolyutsiyasi qizlar masalasini muvafaqiyatli hal qilishda katta roʻl oʻynaydi.

N Seyzd yana bir bor etiborni sharqdagi mehnatkash xotin-qizlar oʻrtasida orasidagi ishlarni kuchaytirish uchun mahsus fond ajratishni zarur deb topdi.

1924-yil dekabrda R.K.P(v) Markaziy Komitetning Tashkilot byurosi “Sharqning navbatdagi vazifalar toʻgʻrisida” qaror chiqardi. Bu qarorda adliya vazifalari zimmasiga xotin-qizlarni ozod qilishga toʻsqinlik qilayotgan reaksiya elementlarga qarshi kurashni aktivlashtiribgina qolmasdan aholining xotin-qizlar orasida sotsialistik turmushni propaganda qilishni kuchaytirish vazifasini ham yukladi. R.K.P(v) Markaziy Komitetining 1925-yil 17-25 yanvarda boʻlib oʻtgan pleniumining sharqning xotin-qiz ishchilari, dehqonlari va mehnatkash ayollari oʻrtasida ish sohasidagi partiyaning navbatdagi vazifalari toʻgʻrisidagi qarori sharq xotin-qizlari orasida olib boriladigan ishda muhim ahamiyatga ega boʻldi. Qaror Mahalliy millat xotin-qizlar orasida ishni asosan quyidagi yoʻnalishlarida olib borishni koʻzda tutdi;

²². D.A. Alimova. R.X. Karimov va – Oʻzbekiston tarixi (1917-1991) T.2002

²³Edtiklapidiya. 468..467. betlar.

- Ularni faol partiya sovet kasaba soyuz va kooperativda quriloishiga maksimal jalb qilish
- Erkaklar bilan bir qator ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun xotin-qizlarni bo'shatib oluvchi muassasalarni rivojlantirish
- Xotin-qiz ishchilari va dehqonlari sovr to'li bilan va kommunistchasiga ongli bilimli qilish sohasidagi ishlarni kuchaytirish
- Xotin-qizlar mehnati malakasini yuksaltirishda ularning ishlab chiqarishda doimo ishlashni taminlash xotin-qizlarni ozod etish sinfiy dushman unsurlariga qarshi shafqatsiz kurash jarayonida o'tdi

Ruhoniylar butun kuchlarini ishga solib partiyaning xotin-qizlarni ozod qilishga qaratilgan siyosatiga qarshilik ko'rsatilar. Mullalarni ijozat bermaslikka chaqirdilar.

Xotin-qizlarining syezdlariga borishga qarshi tashviqotlar olib bordilar delagat ayollarni kaltakladilar, zo'ravonlik va zo'rlab o'ldirdilar. Izbosgan rayonidagi Chuvam qishlogida qishloq sovetining a'zosi qilib To'tabinbiyni sayladilar. O'z K(v)P Markaziy Komiteti xotin-qizlarni ozod qilish to'g'risidagi qarorlarning bajarilishini chuqur o'rganib har bir ayrim holda aybdorlarni aniqladilar va jazoladilar rayonni serg'ayrat partiya ishiga sodiq kadrlar bilan mustahkamladilar bu ishga quyi aktivni keng jalb etdilar. O'sha yillari O'zbekiston SSR markaziy komiteti raissining o'rin bosarida ishlagan Jahon Obidova xotin-qizlarni ozod qilishda kata tashkiliy ish olib bordi. Anashu davrda xotin-qizlar teng huquqliyligini tashviqot qilishda klublarda tashkil etilgan oilaviy tugaraklar kata rol o'ynadi. Bu tugaraklarda ayollar o'z erlari bilan va bolalari bilan qatnashar uning ustiga erkaklar va xotinlarni ochiq olib kelishiga majbur edilar. Qalin berishni tugatish xotin-qizlarni ozod qilishda eng muhim vazifalardan biri edi. Sovet qonunchiligi sovet sudi xotin-qizlarni oldi sotti obektiga aylantirib qo'ygan bu g'oyat zarararli patriarxal feodal tuzum sarqitiga

qarshi qattiq kurash olib bordilar.²⁴

“Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish baxonasida 1927-yilda respublikada shu tariqa “Hujum” harakati avj oldi. Xotin-qizlar faolligini oshirish bobida malum manoda bu harakat ijobiy baholansada uni tashkel etishdan ko'zlangan bosh maqsad reaksion edi. Avvalo bu harakat mahalliy

²⁴O'zbekiston SSR Tarixi III tom 483.....490 betlar.

xalqlarning asrlar osha tarixan shakllangan milliy anana va qadryatlarni hisobga olmagan holda o`tkazildi.Xotin-qizlardan ayollik shani qadr qimmatini oyoq osti qilindi.

Ko`p hollarda paranji chachvoni tashlash zo`rlik bilan amalga oshirildi.

Ikkinchidan xotin-qizlar ozodligi uchun kurash bahonasida islom qarshi kurash avj oldirildi.Chunki xotin qizlar ozodligining asosiy dushmanlari qilib islom ruhoniylari ko`rsatildi.

Sho`ro hukumati va Koferk "hujum" kompartiyasini o`tzazishdan quydagi maqsadlarni ko`zlagan edi. Birinchidan O`zbek xalqining tarixan takib topgan milliy axloqiy sharqona a`nana va qadryatlarni haqarot qilish va manaviyatimizga zarba berish.Ikkinchidan xotin-qizlarni ozod qilish bahonasida sanoat korxonalari kalxoz va savxozlarda arzon garovga ishlaydigan qo`shimcha ishchi kuchlari sifatida ulardan foydalanish amalda ularni sho`ro qullariga aylantirish edi.²⁵

"Ulug` adib Chingiz Aytmatov hujum kampaniyasi haqida so`zlab bunday degan edi.Afsuski davlat tomonidan o`tzazilgan"Hujum" kampaniyasining Usha davrning og`ir xatolikdan beriladi"deyish kamlik qiladi. Bu insonyatga qarshi qaratilgan jinoyat edi.Ustiga ustak ilohiy olam qurilmasiga qarshi yo`naltirilgan jinoyat edi. Xudoning barqarorligini inkor etgan murtdlar xudoning vazifasini o`z zimalariga oladilar va yangi odam yaratamiz deb daxshatli o`yin boshlaydilar deb jon kuydirib yozganlar.²⁶

"Xotin-qizlarni ozodlikka chiqararishning eng muhim vazifalaridan biri paranjiga qarshi kurash ham edi. Bu tadbirni ayrim ayollar naqadar quvonch bilan aytmalik noxolislik bo`ladi. 1927-yil O`zbekiston Kompartiyasiga "hujum" tashkilotchisiga namuna bo`lish vazifasi yuklanib unda ular o`z xotinlariga paranjisini tashladilar partiyada shu boxona tozalash ishlari olib borildi. Xotiniga paranjini tashlatmaganlar partiya saflarini taftish qilish jarayonda ayrim masul xodimlar savet xukumati o`rnatilgandan kiyin ham qalin puli berib uylanganliklar meros sifatida xotin olganliklari va bir qator xodimlar qo`shxotinligi malum bo`lib qoldi. Ularning hammasi inqilobga qadar qalin to`laganlar ham partiya tomonidan jazolandilar.Mana shunday tekshuruvlar natijasida bazi bir partiya tashkilotlarida masul xodimlarining ayollari ham partiya safiga kirish uchun arizalar bera boshladilar."hujum"ning moxiyatini tushunib yitmagan bazi partiya xodimlari o`zlari bilmagan xolda unga zid xarakatlar qilgankliklari arxib

²⁵O`zbekiston tarixidan materiallar.Andijon 2004 422...427 betlar.

²⁶Chingiz Aymatov-Qoyada qolgan ko`z yoshlar.T:1997-2 son 111 bet.

xujatlaridan malum .maslan M.E.K asosi Karemov ‘Toshtiram’ishchisi o‘z xotiniga paranjisini tashlashga ruxsat bergani uchun uni qamoqa olgan Toshkent viloyati Yallama qishloqida esa masul xodimlar xotinlariga paranji tashlashni man etganlar. Paranji tashlashda extiyotkorlik va miliy urf odatlarni xurmat qilish o‘rniga zo‘rovonlik, majburlash, qo‘rqitish va jazolash usullari ustivorlik qildi. Targ‘ibot tashviqot ishlari faqat ayollar o‘rtasida olib borildi. Ayrim masul xodimlarning tishuntirish ishlarini avvalo erkaklar o‘rtasida olib borish lozimligi haqidagi fikirlari esa inobatga olinmadi. Gap shundaki hujum boshlanishi bilan ayollar nomida sudlarga ajralish xususida ko‘plab arizalar rushgan bo‘lib ular savet hukumatining balog‘atga yetmaganmi erga uzatish qalin berish ro‘satsish nikox o‘qitishni taqiqlash haqidagi yangi qonunlarga tayanib o‘zlarining mutassif yoki keksa erlardan ajratishni istagan ayollarning murojati edi. Odil sovit sudi xuddi ana shularni dastak qilib yuqoridagi mantiqsiz qarorni chiqargan edi. Bu qaror natijasida O‘zbekistonda minglab oylalar buzildi bolalar esa ota-onalar o‘rtasida sarson-sargardon bo‘ldi. Shoshma –shosharlik bilan qo‘yilgan qadam ana shunday mutxish oqibatlariga olib keldi. Sudga ajralish haqida ariza bergan bir qator ayollar o‘sha davirda musurmon odatiga ko‘ra erlari yoki aka-ukalari tomonidan jazolanardi. Umuman xotin qizlar ozodligi bolshevekcha sinfiy yondashuv asosida hujum dushmanlari ro‘xoniylar va boylardir degan shyor ostida amalga oshirildi.²⁷

“Xotin-qizlarni erkaklarga qarama-qarshi qo‘yadi. Bazi yingil tabeyat ayollar bo‘lar bo‘lmasga tashkilotma-tashkilot ariza ko‘tarib yuradigan odat chiqaradilar qo‘di-chiqdi ko‘paydi oylalar buzidi va yetim yesirlar soni oshdi. Faqat 1935-yilnuning o‘zida 1172 kishi xotin-qizlar ozodligini dushmani sifatini sud qilindi va jinoy-javobgarlik tortildi.”²⁸

“sovet hukumati o‘zbek xotin-qizlarini ozadlikga chiqarish jarayonda ularni ishlab chiqarishga jalb qilish tadbirlarini ham amalga oshirdi. Bundan ko‘zlangan asosiy maxsat sovet xalq xo‘jaligini mommolarini xal qilish uchun yangi mehnat resuslarini ishchi kuchlarini paydo qilish edi. Dastlab xotin-qizlar xunarmanardidchilik kooperatsiga jalb qilindi. Xotin-qizlar kulublarida ickkiyim ko‘rpa-tushak, to‘ppi to‘qiydigan xona ishxonalar ochildi. Keyin chalik hunarmandchilik kopiratsiyasi tarkibida maxsus ayollar artillari tashkil qilindi 1926-yilda respublikada 16 ta yerik ayollar artillari bo‘lib ulardan 814 nafar maxaliy millat vakillari mexnatqilrdi.

²⁷O‘zbekiston savet mustamlakachiligi davrida O‘zbekistoning yangi tarixi 2. T:2000 375... 385 betlar

²⁸N.Jurayev SH.Karemov –O‘zbekiston taeixi 2. T:2011 414... 420 betlar

Qishloq joylarda ham ko'plab qyollar artillari ochildi. Marg'ulon tumanida ayollar pillakashlik artily Surxandaryo okuruginig Kashmon qoshlog'ida gilam to'quvchi ayollar arteli mavjud edi. SHunga o'xshash hunarmandlar artellari qishloqlardan ham foaliyat ko'rsatti 1930-yilda respublika hunarmandchilik kooperatsinig 50 dan ortiq artellarida 5000 nafardan ko'proq ayollar ishlardi. Ularning ko'pchiligi bundan tashqari 2000 yaqin ayollar artellar bilan shartnoma tuzub uyda ishlardilar. Xotin-qizlar yerik sanoat korxonalariga ham jalb qilina boshlandi. Bu ish umuman olganda ijobiy jaroyon edi. Lekin ko'pxollarda atroflecha puxta o'ylab ko'rmay kompaniyachilik yo'li bilan ayollarni o'g'ir ishlarga ularning sog'lig'ga to'g'ri kelmaydigan vazefalarga qo'ydilar. Ayollarning fiziologik o'ziga xos tomonlari hisobga olinmadi. Bu albatta ishlab chiqarishga jalb qilishdagi noto'g'ri yo'l edi. 30-yilar boshidan boshlab ayollar mehnatga munosabati o'zgardi sanoatlashtirshni jadallashtirish sotsalestik mofaqiyatlar ortidan quvish ayollar masalasida ham o'z asorayini qoldirdi. Ayollar erkaklar bilan tenig huquqli degan qoyda notug'ri talqin qilinib xotin-qizlar mehnatda ham erkaklar bian tenig huquqli bo'lishi kerak deb talab qilindi. Ayollar masalasi hal etildi deb tushunildi. Hattokiy partiyaning qurultoylarida xozirgi paytda xotin-qizlar shu qadar o'sib kitgankiy ularning o'ziga xos jixatlari xaqida gapieish o'rinsiz deb ko'rsatildi. 1930- yilda xotin qizlar masalalari mommolar bila shug'ullanadigan xotin-qizlar bo'limlari faoliyati to'xtatildi. Ayollar jismoniy kuch talab qiladigan og'ir sanoat korxonalarida chilangar slesir shafyor bo'lib ishladilar qurilishda mexnat qildilar. 1931- yilda "Toshselmash " zavodida 345 ayol Toshkent temir yo'llarining birnchi may ustaxonasdia. 80 nafar ayol ishlagan 1940- yilga kleylib respublika sanoatidagi ishlarining 41% ni X-qizlar tashkil etadi. Uzbek xotin qizlari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga ham keng jalb qilg'irindi. Ayollar kalxozlarga azo bo'ldilar. Respublikada ipakchilik keng rivojlandi. 1928-yilda Toshkent okrugida pillachilik artellariga 560 dehqon xo'jaliklari birlashgandi. 1930- yil respublikaning ipakchilik koperatsiyasi shirkatlarida 13 mingga yaqin ayollar ishlardilar. 1925-28 yillarda ayollar kalxozlari tashkul qilindi. Ularda 5.5 mingdan ko'proq xotin qizlar xizmat qildi. Lekin bu artellar amalda o'zini oqlamadi. O'gir ishlarni bajarish uchun erkaklar yordami kerak bo'ldi. Shundan so'ng ayollar erkaklar bilan ishlay boshladilar. 1931- yilda respublikada 50% xotin qizlar kalxozlarga azo bo'lib kirgan edilar. 30-yillarda o'zbek ayollarini ularga mos bo'lmagan kasb traktorchilikga qatnashish avjiga chiqdi. Faqat 1939- yilda 2500 xotin qizlar traktorchilar kursida o'qishdilar. Ularning ko'plari o'qishni bitiricha bitiriib bu kasb bo'yicha ishlamasdi. Farg'ona, Samarqand, Xorazm viloyatlarida kurslarni bitirgan 2000 dan ortiq ayollardan faqat 714 nafari

traktorchi bo`lib ishlagan. O`zbek xotin qizlarini ishlab chiqarishga jalb etilishi ularni ozodlikga chiqarishda muhim omil bo`ldim. Shu bilan birga partiya organlarining mamuriy buruqbozlik usuli sanoatlashtirishni kallektivlashtirishni jadallashtirish siyosati ishlab chiqarishda ayollar mehnatini tashkil qilishda qator muammolarni keltirib chiqardi. O`zbek ayollarini jamiyatning teng huquqli azolariga aylantirishda erksizlikdan qutqarishda ularni madaniy va ijtimoiy hayotga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etdi.²⁹

“Hujum”ni amalga oshirish jarayonida xotin qizlar bo`limi “senodel” xodimlarining har bir yahshi tashabbuslari mafkuraviy niqobga olindi. Oqibatda bu harakatga ziyon keltirdi. Oilaviy, marif to`garaklar er xotinlar birgalikda to`planib ayollarni ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotga jalb qilish masalalari haqida suhbat qildilar. 1927- yil ana shunday to`garaklardan o`zbekistonda 200 tasi faolyat ko`rsatgan edi. Bu usul erkaklarga ruhiy tasir ko`rsatuvchi ajoyib tadbir edi.

Biroq “Partiya tartibi qo`riqchilari” mayda burjuva kayfiyati xafini sezib qoldilar. Chunki bunday uchrashuvlarda hukumatning xotin qizlarni ozod qilish borasidagi nomaqbul harakatlari ham muhokama etilishi tabiiy edi. Ohir oqibatda to`garaklarda “sinfiy dushmanlar” to`planishidan cho`chigan kompartiya ularni tarqatib yubordi. Xotingi qizlar ozodligi uchun kurash aslida sinfiy kurash emas dunyo qarashlar kurashi edi. Mazkur kurash asrlar osha islom ongiga muhurlangao`zbek xalqining o`z tasavurlaridan majburan voz kechishiga qaratilgan edi. Bu kurash partiya qo`mitalarining noto`g`ri ish uslublari asosida suniy ravishda sinfiy kurashga aylantirildi. Targ`ibot yuritish uchun masjidlar tanlandi paranji tashlash bo`yicha tarkibiga mlitsiya boshlig`I kirgan uchliklar tuzuldi. Mullalardan o`z xotinlari yuzini to`g`risida majburachish tilxatlar olindi. Bunday zo`ravonliklar xotin qizlar haraktiga salbiy tasir ko`rsatdi “hujum” harakatining asil maqsadi faqat paranji tashlashdan iborat emasdi. Uning asosiy maqsadi xotin qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb etish edi. Shu maqsadda o`sha yillarda o`zbekistonda va unga qo`shni respublikalarda bir qator xotin qizlar artellari tashkil qilindi. Shuni alohida takidlash joizki dastlabki yillarda xotin qizlar kuchida keng foydalanish masalasiga ehtiyotkorona yondashildi. Ular birdaniga zavod ishlariga tortilmadi. Ayollar og`ir yuk ko`taradigan va sog`ligiga zararli murakkab sohalarda ishlamasligi alihida yakdlab o`tilde. Biroq 20 - yillar ohiriga kelib bu yondashuv keskin o`zgardi. Ayollar va erkaklar mehnatini tom manoda

²⁹D.A. Alimova R.H. Karimov V.K.H...-O`zbekiston tarixi (1917-1991) T:2002 179...185 betlar

tenglashtirish g'oyasi ustuvorlik qildi..Natijada ayollarni ishlab chiqarishning barcha soxalariga jalb etish boshlandi. O'zbekistonda ko'plab ishchi kuchi yetishmasligini niqob qilib aksariyat partiya va sovet rahbarlari uni xotin-qizlar hisobiga to'ldirishni taklif etardilar. Jumladan qurilish ishlarini ayollar zimasiga yuklash mumkin. Ular g'isht tashishni ,terishni,duradgorlikni uddalay oldi degan xulosa chiqarildi. Ayollarni og'ir sanoatga jalb etish xam uzliksiz amalga oshirildi. O'z SSR M.I.K. huzuridagi xotin-qizlar mehnati va turmishini yaxshilash kamisiyasi raisi A.Volnii ayollar metal va yog'ocgni qayta ishlash sanoatida ham bemalol ishlay oldilar deb takidladi. Bunday bir tomonlama yondoshuv o'zbek xalqining qadryatlarini bilmaslik yoki bilgan taqdirda ham uni mensimaslik oqibati bo'lib o'zbek ayolli ko'nikmasiga mutlaqo zid bo'lgan og'ir mehnatga jalb qilish va ular evaziga sanoatni jadal

Rivojlantirishdan eborat edi. Shuning uchun ham A Avloniy biz metalni qayta ishlash sanoatiga 10 ming ishchi tayorlashimiz zarur, ularning 15 foizi ayolla bo'lishi kerak. 7000 ming shafyorning 50 foizi 2700 traktorchining 20 mingi xotin-qizlar bo'ladi deb aytgan edi.

Sovetlarga xos "teng huquqlilika"erishish oqibatida 1939 –yilga kelib ayollar erkaklar bajaradigan ishning 50 % egalashdi. Bu ko'rsatgich ayniqsa qishloq xo'jaligida yaqqol ko'zga tashlandi. 1930-yilda O'zbekiston Turkmanistonning paxtakor tumanlarida yashovchi ayollar jamoa va davlat xo'jaliklaridagi ishchi kuchini 80% ni tashkil qildirdi. Ular qishloq xo'jalik ishlarining 15 soxasida urug tojalashdan tortib yer haydash ekin ekish unga ishlov berish va terib olishgacha bo'lgan ishlarga qatnashdi. Yoppasiga jamoa xo'jaliklariga ayollar maishiy shar-sharoitlar xususan bolalar bog'chasi yo'qligigan bir qo'lida yoki yelkasida bolasini ko'tarib dalada ishlardilar.

Bu partiya sovet tashviqotchilari tomonidan "kalxozchilarning yuksakligi sifatida talqin qilinardi.Sovet g'amxurligi"ning eng zo'r timsoli ayollar uchun mahsus"yengil ketmonlar"ishlab chiqarilgani edi.Lekin 30-yillarning boshlaridan boshlab ayollar masalasi mamlakatdagi sovet satsalistek qurilishning umumiy jarayonida o'zining dastlabki ahamiyatini yo'qotib boratoyganligi sezila boshladi. Natijada 1939-yilda xotin –qizlar bo'limlari bekor qilindi. So'ngra xotin-qizlar uchun jurnallar ham chop etishi to'xtatildi . Bular orasida o'zbekistondagi birinchi ayollar gazitasi "yangi yo'l" ham bore di.Muomoga so'ngi nuqtani V.K.P (v) ning 18 syezdida A Kaganovich qo'ydi. Hozirki paytda xotin-qizlar shu qadar usib ketganki ular masalasi haqda gaprish o'rinsizdir. Ozodlikka erishgan ayollar mehnatga shu qadar berilgan ediki erkaklar ham ortda qolib ketardi. "Pravda vastoka" gazetasi

1932 –yil 10- iyuldagi sonida yozilishicha qishloq xo`jaligida ayollar erkaklar uchun mo`ljallanga normalarni ham oshirib bajarib boshlaganlar.³⁰

Xotin-qizlarni erkaklarga qarama –qarshi qo`yadi. Bazi yengil tabiat ayollar bo`lar-bo`lmasga tashkilotma-tashkilot ariza ko`tarib yuradidan odat chiqardilar.

Qo`ydi chiqdi ko`paydi oilalar buzildi yetim yesrlar soni oshdi. Faqat 1935-yilning o`zida 1172 kishi xotin qizlar ozodligining dushmani sifatida sud qilindi vajinoiy javobgarlikga tortildi.³¹

“Xulosa qilib aytganda shunday qilib partiyaviy taziq savetcha majburlash va mafkuraviy kurash asosida o`tzazildi “hujum” harakati qiyinchilik bilan bo`lsada hayotga tadbiq etib borildi. Buning natijasda o`zbek ayollari ijtimoiy ishlab chiqarishda eng kata og`ir mehnat talab qiladigan ishlarga ham tortildi. 1930-yilda ular qishloq ho`jaligida ishchi kuchidan 80% ni tashkil etdi. Boshqa sohalarda ham xotn qizlar salmog`I ortib ularning ijtimoiy faolligi kuchaygan.³²

Bundan ko`rinib turibdiki bu ijtimoiy faollikga tezlik bilan va majburlash erishildi. Albatta undan ko`zlangan maqsad sovet hukumatining manfaatlari turardi. Yana ayollarni ishga jalb etib ulardan ishchi sifatida foydalanish edi.Ular ayollar mehnatidan foydalandilar arzon garovda maqsadlari ham shu edi ularni.

³⁰O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida o`zbekistonning yangi tarixi 2 T:2000 375.....385

³¹N.Jurayev Sh.Karimov-O`zbekiston tarixi 2 T:2011 413...420 betlar

³²Q.Usmonov M.Sodiqov-O`zbekiston tarixi (1917-1991-yil) T:2003 109..111 betlar

3. “Hujum” harakatining mahalliy xalq hayotiga ta’siri.

“1925-yil fevralida SSSR Sovetlari Ijroiya Komitetining Prezidiumi sovet sharqi mehnatkash xotin-qizlarning huquqlari hamda iqtisodiy va oilaviy huquqiy sohadagi tutqunliklarning barcha xillariga qarshi kurashish zaruriyati to’g’risida murojaat qabul qilib unda milliy chekka ulkalar xalqlarini xotin-qizlar bolalar muassasalarining keng shaxobchalarini barpo etishga Xotin –qizlarni maktablarga va boshqa okartuv muassasalarga jalb qilishga chaqirdi.”³³

Shunga qaramay “hujun” harakati dastlab ancha sezillarli yutuqlarga erishib bordi. 1927-yil bahoriga kelib 100- ming ayol paranji tashladi. Ming- minglab ayollar korxonalarga, qishloq tuman kengashlariga, sud tizimiga ishga tortildi. Ular orasidan ko’plab traktorchilab, brigadirlar, kalxoz raislari, kulb va kutubxona mudirlari tayyorlandi. Jumladan, 1927-1929 yillar sudlarning xalq maslahatchilari orsida o’zbek ayollari 563 kishiga teydi. 1926-yilda birgina Toshkent va Farg’ona viloyatlari “Qo’shchi” uyushmalari 4900 ayol a’zolari bor edi. 1927 yil davomida 17169 ayol kasaba uyushmalariga a’zo bo’lib kirdi. 5916 ayol matbuot koopiratsiyalariga a’zo bo’ldi. 2343 xotim qizlar davlar organlariga saylandi. Bu bilan ular ayollarni faolligini oshirishga hissa qo’shmoqchi edilar biroq bu sohadagi ishlar partiya organlari tomonidan bo’rtirib ko’rsatildi. Amilda esa bu jarayon ko’p xollarda joylarda to’xtab qoldi. Bu borada qo’llanilgan xurlash majburlash yo’li va usullari o’zini salbiy natijalarini bermassdan qolmadi. Natijada hatto 10-15 yashar qizlarni ham erga berib yuborish hollari ro’y berdi.”³⁴

“Hujum” eski turmushga qattiq zarba berdi, va xotin qizlarni xurofat changalidan qo’tqarish hamda ularning ijtimoiy aktivligina kuchaytirish uchun kurashda muhim rol o’ynadi.”³⁵

“Hujum” harakatining o’sib borishi davomida 1937 yilga kelib 273637 nafar o’zbek xotin-qizlari savotsizligini tugatish kurslarini muvafaqqiytli bitirdilar. Ayol ishchilar va xizmatchilar sonio 1940 yil 232 ming kishi yetdi. Bu esa butun respublikadagi ishchilarni 40,7 foizga kengaydi. Ular tikuvchilikda 82,3 foiz qandolatchilikda 65,5 foiz tuqimachilikda 88 foizni tashkil etadi.”³⁶

³³ O'zbekiston SSR tarixi III-tom 485-bet

³⁴ Q.Usmonov, M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi T:2003 yil

³⁵ Entiklapediya 486-bet

³⁶ K.To'laganov. O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma. T. 2013 yil 383-bet

“Islom diniga qarshi kurash bahonasida xalqimizning qadimiy urf-odatlarini madaniyati qadriyatlariga hujum boshlandi.” “Ro’za hayiti”, “Qo’rbon hayiti”, “Navruz” kabi xalq bayramlari ta’qiqlandi. Xatto eng sevimli taomimiz bo’lgan sumalakni payg’ambar taomo sifatida ta’qiqlab qo’yidilar. Uning o’rniga yangi shura bayramlari va tantanalari joriy qilindi. Bular SSSR Konsititutsiyasi kuni, “Qizil armiya” kuni, “V.I.Leninning” to’g’ilgan kunini nishonlash” SSSR va O’zbeklar SSRning tashkil etilganligi nishonlash va shular jumlasidandir. Milliy kiyimlarda yurish, sunnat to’yi qilish, o’z ona tilida muloqotda bo’lish eskilik sarqiti va madaniyatsizlik ko’rinishi deb baholandi. Bolalar bog’chalaridan tortib to oliy o’quv yurtlariga qadar ta’lim bosqichlardan yoshlarni xudosizlik (atizm) ruhida tarbiyalash dasturlari darslik va qo’llanmalar ishlab chiqarildi.³⁷

“Madaniy tarbiyaviy ishlarni olib borishda ayollar klublari katta rol o’ynaydi. Bu klublarda ayollarga vrachlar maslahatlar berardi. Bolalar meditsina ko’rigidan o’ykazildi. Tikuvchilikni va boshqa hunarmandchilik artellari tashkil qilinib moyana olish imkoniyati to’g’dirildi.

Shuningdek kutubxona yaslilar ochildi. Xotin-qizlar masalasi bo’yicha suhbatlar o’tkazilib turildi. Klublar o’zbek xotin –qizlarning madaniy saviyasini ortyirishda muhim ahamiyat kasb etdi. 1927 yilda Andijondagi eski shahar ayollari klubida 134 a’zo bo’lgan. 30 yillar oxirida respublikada 42 shunday klublar faoliyat ko’rsatgan. 20-30 yillarda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta etibor berildi. Xotin-qizlarning savodsizligini tugatish bo’yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. 1926 yilda respublikadagi 82ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qizlar o’qitilgan bo’lsa, 1936 yilda 186 ming ayol savodini chiqargan. Kasb-hunar ta’limi tarmoqlariga xotin-qizlar jalb qilindi. Dastlab ayollar orasidan savodsizlikni bitirish kurslari o’qituvchilari, bog’cha yosh tarbiyachilari, maktab o’qituvchilari tayyorlandi. Masalan 1928-yilda Samarqand pedagogika kursida 73-nafar ayol o’qigan. 1929 yilda undan ortiq Xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1933 yilda respublika oliy o’quv yurtlaridagi talabalarning 20 foizini o’zbek xotin-qizlari tashkil qilgan 30-yillar xalq xo’jaligining barcha tarmoqlarida xotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi. Xotin-qizlar faoliyatini oshirishda ayollar majlislari oilaviy yig’inlar ayollar deligatlari majlislari qo’l keldi. Deligatlasrga xotin-qizlar bo’limlari maxsus yo’llanma berib davlat kooperativ va boshqa tashkilotlariga jamoatchilik asosida ishga yuborilgan. Ular mahallalarda ayollar orasida tushuntirish ishlatrim olib borganlar mahallalardagi majlislarda kelin olganda qalin berish balog’atga yetmagan qizlarni

³⁷O'zbekiston tarixidan materiallar. Andijon. 2004. 425-426 betlar

erga berish, ko'pxotinlilik davlar qonunlari bilan man etilganligi qayd etilganligi tushuntirilgan. Deligatlar tashkilotlarida, idoralarda kishilar ishlar amaliy ish tajribasini o'zlashtirganlar. Tajribaga ega bo'lgan deligatlar ma'muriy xo'jalik jamoat idshlariga jalb qilingan o'zbek xotin-qizlari rahbarlik lavozimlarida ham ishlash layoqatini ko'rsatdilar. 1927 yilda respublikadagi tuman ijroiya qo'mitalari a'zolarining 17 foizi ayollar edi. Jahon Obidova O'zbek Markazlar Ijroiya Kamiteti Prizdiumi raisining o'rinbosari Tojixon Shodiyeva ko'p yillar O'zbekiston M.I.K. Prizdiumini a'zosi bo'lgan ko'plab ayollar respublika xalq komissarliklari va boshqa davlat idoralarda bo'lim boshlig'i inspektor lavozimlarida ishlagan. Ayollar orasidan 30-yillarda mashhur olimlar yozuvchilar, muhandislar, shifokorlar, o'qituvchilar, san'atkorlar yetishib chiqa boshladi. Usha yillarda Sora Eshonturayeva, Xalima Nosirova, Tamaraxonim, Muharramova, Turg'unboyevalarning istedodi yarqirab ko'zga tashlandi. Bularning o'zbek xotin-qizlarining teng huquqli jamiyat a'zosi bo'lish madaniyat bilimga intilishlari samarasi edi. Sovet davlatining ayollar borasidagi siyosati shoshmashasharlik usha davrdagi kommunistik mafkura bilan so'g'orilgan bo'lsa ham o'zbeklar ayollari asrlar osha qonida mujassamlashgan shijoat faollik aql-idrok millatimizga xos erkinlikka intilish kabi fazilatlarini tufayli ko'pgina ijobiy natijalarga erishdilar.³⁸

“Tarixiy mabbalarning guvohlik berishicha bir qator taraqqiyparvar ruhoniylar diniy boshqarmalar qoshida”, “Xotin –qizlar bo'limlari” tashkil etishga harakat qilganlar. Jumladan, Farg'ona vodiysida qishloqlarida “Diniy boshqarma xotin-qizlar bo'limi mudirasi Mursalibibi imzosi bilan aholi o'rtasida davatnomalar tarqatilgan. Unda paranji tashlashga qarshilik ko'rsatmaslik aynin chog'da diniy tarbiyani unutmaslik takidlangan. Taassufki partiya sovr tashkilotlarining mutasadilari taraqqiyparvar ruhoniylarning bu tashabbusini qullab quvvatlamadilar. Shuni alohida takidlash joizki jamiyatdagi o'zgarishlarni to'liq his eta olgan ba'zi ruhoniylar “Hujum” kompaniyasidan avvalroq ya'ni 1925 yilda katta yoshdagi ayollar va qiz bolalar uchun maktablar tashkil etishni boshlab yuborgan edi. Markaziy diniy boshqarma barcha musulmonlar imomlar muxtasiblarga murojaatnoma qabul qilib unda islom erkaklari bilan bir qatorda ayollarga ham o'qish va yozishni o'rganish majburiyatini qo'yadi deb ko'rsatildi. Ayollarni o'qishdan mahrum etuvchi o'rta asr mutaassibligiga bermaslik tavsiya etildi. Mqanbalarga ko'ra ruhoniyyatning ayrim ilg'or vakillari o'zlari xotinlari boshidan paranjini yechganlar Qo'qon ruhoniyyatining rahnomasi To'raxon Maxsum

³⁸D.A.Alimova, R.X.Karimov va boshqalar. O'zbekiston tarixi (1911-1991) T.2002 183-185 betlar.

dindorlarning vazifasi hukumat bilan aholi o'rtasida vositachilik qilishdan iborat deb takidlagan edi. Andijon va Namangan aholisi orasida katta obruga ega bo'lgan Andijon ruhoniylari rahbari Shayx Mavlani ham ayollarni ozodlikka chiqarishga qaratilgan hukumat tadbirlariga qarshilik ko'rsatmaslikka chaqirgan. Ba'zi taraqqiyparvar ruhoniylar hatto paranji tashlashni diniy yo'l bilan qonunlashtirish maqsadida "Fatvo" sovet hokimiyati va uning siyosiy rahbariyati ruhoniylarni taraqqiyparvarlarga va reaksion ruhoniyatga ajratib o'tirmadi. Ularning barcvasini sinfiy deb hisoblab ularga qarshi yopasiga kurash olib bordi. Natijada butun "Hujum" tadbiri davomida kechirib bo'lmas strategik xatolarga yo'l qo'yildi. Mamuriy tazyiq o'tkazish duq-pupisa qiliish jarimalar solish ayollarni majlislariga militsiya yordamida kuch Namanganda dehqonlarni majlislariga militsiya tupponcha o'qalib olib borishgan. Samarqandda ayollardan paranjini zo'rlik bilan yechib tashlash vaqealari yuz bergan. Tabiiyki aholi bunday adolatsizliklarga qarshi norozilik bildirib boshladi. Bolsheviklarning bunday qati-harakatlariga qarshi ommaviy chiqishlar Namangan Chust, Buvayda, Rishtonda va boshqa joylarga sodir bo'lgan sovet hokimiyati tomonidan diniy mavzuga bag'ishlangan majlislar o'tkazishni man etilganligi munosabati bilan Andijonda norozilik namoyishi bo'lib o'tdi.

Namanganda har birida kamida 500 kishi ishtirok etgan uchta norozilik yurishi yuz berdi. Bu joylarda ham yuqori tashkilotlar ruxsatisiz qishloq sovetlari va "Qo'shchi" qo'mitalari qayta saylandi. Oqibatda respublikada murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat yuzaga keldi. Natijada bolsheviklar bilan dindorlar o'rtasidagi bu kurash ochiqdan-ochiq urush shakliga kirdi. Shu bilan bir qatorda bu yillarga kelib musulmon olamida bir qator jonlanish yuz bera boshlagan edi. 1926 yil Makkada xalqaro musulmonlar anjumani bno'lib o'tdi. Unda O'zbekiston ruhoniylari vakillari ham ishtirok etishdi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra sovet ittifoqi dilegatsiyasi Sobiq Rossiya imperiyasi turkiyzabon xalqlari milliy taraqqiyparvar harakatining yirik arbobi o'sha yillatda muhojirlikda yashagan Ahmad Zaki Validiy bilan uchrashadi. Tabiiyki anjumannning dunyo xalqlari xususan, islom diniga etiqod qiluvchi xalqlar o'rtasida tinchlikni saqlash borasidagi say-harakatlari O'zbekistonlik taraqqiyparvar ruhoniyat intilishlariga hamnafas edi. Biroq sovet hokimiyati buni ruhoniyatning omma o'rtasida obru-etibor qozonish uchun ataylab partiya organlari usullaridan foydalanib ularga xotin-qizlar muammolari borasidagi o'z intilishlarini qaramq-qarshi qo'yish uchun harakat deb baholandi. Aslini olganda taraqqiyparvar ruhoniylar harakati xotin-qizlar ozodligi masalasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar, qonli

to'qnashuvlarning oldini olish va bu keskin va ziddiyatlar yuzaga kelmasligiga intilish tufayli yuzaga kelgan edi.³⁹

“ 1927 yilda Andijon xotin-qizlari konfirsiyalarida 1550 kishilar qatnashdi, 704 ayol paranjilarini tashladi. Shu yili Namangan oblastida 300 xotin-qiz parangi tashladi. 1927 yil 8-mart kuni mahalliy millatlarga mansub minglab xotin-qizlar namoyishga chiqdilar. Shahar maydonlarida parangi va chachvonlar yonayotgan ulkan gulxanlarni ko'rish mumkin edi.”⁴⁰

“GPu xodimlari 30-yillarda islom ruhoniylariga yoppasiga qutirib hujumga o'tdilar va ming-minglab gunohsiz dindorlarni qatag'on qildilar. O'zbekiston SSSRning jinoyat Kodeksining 66-moddasiga binoan bu davrda qatag'on qilinganlariga bir xil to'qima aybnomalar qo'yilgan Eshon Mulla aksiinqilobchi, quloq, jamoa xo'jaligiga qarshi xotin-qizlar ozodligini dushman va hakazolar”⁴¹

Xulosa qiladigan bo'lsak “Hujum” harakatining mahalliy xalq hayotiga ta'siri albatta bo'ldi. Bu harakat ular hayotiga qiyin shu bilan birga ayollarning hayotiga yangilliklarni olib keldi. Mahalliy xalq ayollarni ham jamiyatda ta'siri sezilarli va kuchaydi.

³⁹ O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekistonning yangi tarixi. T.2000. 379-382 betlar

⁴⁰ O'zbekiston SSR tarixi III-tom 387-bet

⁴¹ N.Jo'rayev, SH.Karimov. O'zbekiston tarixi 2. T.2011 419-420 betlar

4.”Hujum” harakatining keltirib chiqargan oqibatlari.

“Hujum”harakati oqibatlariga bir nazar soladigan bo`lsak. Bu harakatni ham ijobiy taraflarga nazar solamiz. “Hujumning”muaffaqiyatga erishuvida ommaviy axborot vositalari hususan “Pravda” “Pravda Vostoka” “qizil O`zbekiston” “kambag`al va dehqon va boshqa gazetalar leksiya suxbat majlislari maxsus xotin-qizlar klublarining ishlari katta yordam berdi.⁴²

“Hujum” shu qadar shiddatli tus oldiki hatto xotin-qizlar yuzini ochish bo`yicha O`zbekiston va Turkmaniston Respublikasi o`rtasida “Sotsialistik musobaqa”tashkil qilindi. U tarixga millionlar shartnomasi nomi bilan kirgan Respublikaning sovet sud organlari ham qo`shildilar.

Ular chiqargan qarorlarning birida ajralish usulari 1 haftadan kechiktirmay ko`rib chiqilsan degan band mavjud edi .Manbalarining bo`lishicha 27-yil Qo`qon viloyati Buvayda tumanining Poloson qishloqida dehqon Abduqodir Xojimatov o`z ayollar partiya tashlab faollik ko`rsatgani uchun osib o`ldirgan.

Shu oyda Beshariq tumanining yangi qo`rg`on qishlog`ida ham .Shuday voqea sodir bo`ladi. Andijon viloyatining Nazar qishlog`ida Maxram ish yurituvchi faollardan Hadicha Eshboyeva va uning turmush o`rtogini o`ldiriladilar.

Toshkentda ko`kalkash madrasasi minorasidan reaksiyon dindorlar ayollarni qopga slogan holatda yerga tashladilar. Bunday daxshatli voqealarni ko`plab keltirish mumkin. Umumiy rasmiy hujjatlardan ko`rsatilishicha “hujum” kampartiyasi (1927-1927) yilda O`zbekiston 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar qishloq tumani kengashlarining a`zolari xotin-qizlar klublari va kutubxonalar mudirlari o`ldirilgan.Albatta bu raqamlar sovet statistik malumotlarida ataylab kamaytirib ko`rsatilganligi hozirgi kunda hammaga malum xotin-qizlar bunday qiynoqlarga tazyiq va terorga qarshi norozilik bildirdilar. Aksariyat viloyatlarda xotin-qizlarning terrorga qarshi namoyishlari bo`lib o`tdi. Shundan so`ng hukumat xotin-qizlarni huquqiy jihatdan himoyalash ishlarini kuchaytirishga majbur bo`ldi.Birgina 1927-yilning o`zida ayollarga nisbatan noqonuniy ish tutganligi uchun 671-kishi qamoqqa olinib har xil muddatga ozodlikdan mahrum qildilar. Shulardan 7 kishi otuvga hukm etildi.Afsuski masalaning nozik jihatlardan bilan qiziqmagan “hujum”muvvafaqiyatlaridan esankirab qolgan kompartiya va uning siyosiy raxbariyati o`rta osiyo xalqlari qoniga singib ketgan islom omilini butunlay inkor etdi. Unga bepisan qarash yerga urush oshkora tan olmaslik uni qo`porib tashlash yo`lini tanladilar shuningdek ijtimoiy omilga ham etibor berilmadi. Bunday shoshma-shosharlik aholi orasida sovet

⁴²Entiklapediya 487-486 betlar

hukumatiga nisbatan dushmanlik munosabatini kuchaytirdi. Ular xotin-qizlarning ozodlikka chiqarishiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqqa boshladi. Hukumat vakillari paranjini tashlagan xotin-qizlarga nisbatan qilingan jinoyatlarni ruhoniylarning ko'rdilar. Ularni bosh ayibdor deb bildilar. Lekin dindorlar orasida ham parangi tashlashga qarshi turish qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini his etgan anchagina taraqqiy parvar ruhoniylar bor edi. Darvoqe muqaddas Qur'on ham ayollarning ijtimoiy hayotga va ishlab chiqarishda ishtirok etishni taqiqlamaydi. Dinga va ruhoniylarga qarshi kurash kurashchan hudusizlar uyishmasi faolyatida o'zining aniqifodasini topgan 20-yillarda tashkil etilgan xotin-qizlar bilimlari dinga qarshi targ'ibotda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish yuritgan bo'lsada 30- yil boshlariga kelib bining butunlay aksi bo'ldi. Uyishma raisi K.Makarov ehtiyotkorlikni to'g'ridan-to'g'ri bemanilik deb baholadi. Dindorlarga machitlarni qaytarib berish haqidagi talablar esa hudusizlarga kamsomol va klublarga qarshilik ko'rsatish deb qabul qilindi. Taraqqiy parvar ruhoniylarning xotin-qizlar yuslarini ochishda jamiatchilik idoralari bilan hamkorlik qilish haqidagi takliflarga etibor berilmadi. Usha yillari O'zbekiston K P(V) M. Q singari O'rta Osiyo burjuasida xotin-qizlarni bo'limini boshqargan S.Lyubimovahunday yozadi Qur'on va shariatni targ'ib etadigan ruhoniylar xotin-qizlarni yuzini ochishda bizga hechqachon madadkor bo'la olmaydi VKP (V) M.Q targ'ibot va tashviqot bo'limining sektori mudiri S.Dimanshteyn esa garchi taraqqiy parvar ruhoniylar jadidchilik unsurlarini din bilan uyg'unlashtirishga harakat qilayotganliklarini taqiqlasada baribir ularga qarshi kurashishni kuchaytirish zarurligini taklif etadi.⁴³

Jumladan qoraqalpog'iston respublikasi Beruniy tumani hududidagi payg'ambar MUhamad sollolohu alayxi vassallamning do'sti Sulton vays boboga atab IX asrda qurilgan maqbara va masjidning tilladan yasalgan jihozlari xar-xil buyumlari 30- yillarda talon-taroj qilindi. Madrasa esa buzib tashlandi. 1935-yillarga oid malumotlarga qaraganda Buxoro shaxridagi Devonbegi madrasasida Buxoro yodgorliklarini saqlash komissiyasining ish yuritish xonasa ekskursiya bazasi joylashtirilgan Ko'kaldosh madrasasi va Devonbegi xonaqoshida Buxoro shahar muzeyi bo'limi joylashdi. Masjid Kalondon g'alla ombori sifatida foydalanganlar Qo'shimcha paxta saqlangan xuddi usha 1935 – yilgi malumotlarda takidlanishicha Mirarab madrasasi Bohovuddin Naqshband mozori hamda

⁴³O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekistonning yangi tarixi T.2000. 377... 381 betlar.

masjidi va boshqalar diniy markazlar sifatida qoralab kelingan 1938- yilda Beshkentda tuman firqa va ijroiya qo'mitalarining qoshma hayoti majlisi bo'ladi. Unda Mamnazarov, Ymak Otaboyev, Yovliyev, Aslonova, Doroshenko, shoxobidinovlar qatnashgan. Qo'shma hayot "Kasbi" qishloq sho'rasidagi ko'hna masjid haqidagi masalani ko'rib chiqadi. Qabul qilingan qarorda qishloqdan maydonda foydalanmay harob bo'lib ketgan masjid stalin nomli jamoa xo'jaligi azolarning roziligi bilan masjidning kerakli g'ishlari olib boshqa kerakli joyga harjlansin va shuning tasdig'I javobi o'z SSR Markaziy Ijroqomining hayatidan so'ralsin deyilgan edi. Ana shu tariqa qadimiy tarixiy obidalar masjid-u madrasalarni buzish jamoa xo'jaliklarining roziligi bilan g'ishtlarini kerakli joylarga ishlatish butun O'zbekiston hududida nafaqat 20-30 yillarda balki undan keyingi yillarda ham ko'plab bora sodir etildi.⁴⁴

Yana shu takidlash kerakki Ayollar orasidan keraki 30- yillarda maskur olimlar yozuvchilar shoirlar muhandislar shifokorlar o'qtuvchilar sanatkorlar yetishib chiqa boshladi. Usha yillar Sara Eshonto'rayev, Xalima Nosirova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyevalarning isdedodi yaraqlab ko'zga ko'rindi. Bularning barchasi o'zbek xotin- qizlarning teng huquqli jamoat azosi bo'lish madaniyat birga ishlari samarasi edi. Sovet davlati ayollar borasidagi siyosatning shoshma- shosharlik usha davrdagi komunistik mafkura bilan sug'orilgan bo'lsa ham o'zbeklar ayollari asrlar osha qoniga mujassamlangan shijoat faollik aql idrok millatimizga xos erkinlikka intilish kabi fazilatlarini tufayli ko'pgina ijobiy natijalarga erishdilar.⁴⁵

"hujum" harakati keltirib chiqarilgan oqibatlarining salbiylari ham yoq emas anchagenaligi ko'rinib turibdi. 1925- yil fevralida O'zbekiston Kompartiyasi I syezdining delidati Samarqand uyezdining shoshmaobvolostida xotin- qizlar uchun maktab ochgan Sulaymonova o'ldirildi. Bosgqa ko'pgina ayollar ham xotin- qizlarni jamiyatda munosib mustaqil mavqeni egallash huquqlarini himoya qilib buning uchun o'z hayotlarini qurbon qildilar. Dushmanlarning shiddatli qarshiligiga qaramay xotin- qizlar ozodligi uchun boshlagan harakat tobora ommaviy tuz ola boshladi " правда Востока " gazetasining 19- 26 10- martda sonidagi Toshkentda bo'lib o'tgan miting haqida quydagicha yozilgan. 1926- yil martidan yangi shahar rayon

⁴⁴O'zbekiston tarixidan materiallar andijon 2004. 424...425 betlar.

⁴⁵O'zbekiston tarixi (1917-1991) D.A Alimova R.X Karimova v.k. T.2002. 185 bet.

partiya komitetining binosi oldida qizil ashar va o`quvchi ayollardan iborat yevropa millatlariga mansub 2500-3000 xotin- qizlarning namoyishi eski shaharga qarab yo`l oldi. Lelin haykali oldida namoyishi bilan birga uchrashdi ularning bazibirlari erlari bilan birga edilar Lelin haykali zinapoyasida 2 nafar o`zbek ayoli turardi. Ularning biri paranjida edi. O`zbek ayoli mitingni ochdi xotin- qizlarni batamom ozod qilishning eng yaxshi va to`g`ri yo`li dedi. U V.I Lelinning o`lmas vasiyatlarida ko`rsatilgan bironta ham ayol kishi doxiyning har bir har bir cho`li ayol davlatini boshqara olishi kerak degan so`zlarini unutmasligi lozim shundan bir oz keyinroq parangi yopingan o`zbek ayoli so`zga chiqdi. U chachvonini ko`tarmasdan turib o`zbek xotin- qizlarning og`ir qismati haqida gapirdi. Namoyishda qatnashayotgan ayollarning “ Paranjini tashla yuzingni och” degan hitoblari yangradi. Bu ayol chaqqonlik bilan paranjini oldi va avval boshda qo`rqa- pisa eri tomonga ko`z tashladi. Yeg`ilganlarni ochiq chehralarini payqagach iljayib turib toniga tekkan chachvanni ulotirdi 1926- yilga kelib sovetlarga o`tkazilgan saylovlarda Farg`ona oblastining o`zida 32 mingdan ortiq xotin- qizlar qatnashdi. Qishloq sovetlarga 665 ayol saylandi vaholanki 1925- yilda butun o`zbekiston bo`yicha Quyi sovetapparatida 200 xotin- qizlar bore di. Shu vaqtga kelib xotin- qizlar “Qo`shchi “ sayuzida 3000 xotin- qiz bo`lgan bo`lsa 1926- yilda faqat Farg`ona va Toshkent oblastlarida o`zidagina “ Qo`shchi” sayuzida xotin- qizlar a`zolarining soni 4900 ga yetdi.⁴⁶

“ Shu bilan birgalikda bu mavsumiy harakat ko`pgina salbiy oqibatlarining yuz berishiga ham sabab bo`ldi. Bu jarayonni o`tkazishda yo`l qo`yildi. Jiddiy xato va kamchiliklar xalning asriy udumlari, o`zbek ayollariga xos sharqona odob axloq tamoyillarining buzilishi bu nozik sohada odamlarning or- nomusini mensimaslik hollari real hayotda ko`plab fojiali voqealarni keltirib chiqardi.⁴⁷

Eng achinarlisi shuki “ Hujum” harakatida faol ishtirok etib unda tashabbuskor bo`lgan butun borlig`ini ongli hayoti faolyatini sotsializm ishiga partiyaning yolg`ol soxta g`oyalarning chinligiga qanchalab xotin- qizlar keyincha stalencha qatog`onlik qurboni bo`ldilar. Bunga o`zbek xotin qizlari ozodligi kurashning otashin namoyondalari- Tojoxon SHodiyeva, Sobira Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova, Maryam Sultonmurodava,

⁴⁶O`zbekiston SSSR Tarixi2 486-487 bet

⁴⁷Q.Usmonov. Sodiqov M. O`zbekiston tarixi . T.2003. 112 bet.

Xayrinisa Majidxonova, singarilarning fojiali va tahlikali kechgan nochor qismatlari to'la misol bo'la oladi.⁴⁸

K. To'laganov o'zbekiston tarixidan unversall qo'llanma T.2013 383-384 betlar.

Xulosa qilib aytgan bo'lsak Hujum harakatining ijobiy oqibatlaridan ko'ra salbiy oqibatlari ko'proq bo'ldi. To'g'ri ayollar xar bir sohada lekin bunga qadar begunoh ayollar qurbon bo'ldilar va aholi kelishmovchiliklar ham bo'ldi.

⁴⁸K. To'laganov o'zbekiston tarixidan unversall qo'llanma T.2013 383-384 betlar.

XULOSA

Hulosa qilib oladigan bo'lsak "Hujum" harakati 1927-yil 8-dekabrda boshlangan bo'lsa u harakatga oldindan tayyorgalik ko'rib borilgan harakatdir. Bu harakatdan paraji tashlatish haqida gap borarkan ular parajini tashlatish orqali erkaklarga ham tasir ko'rsatgan. Ayollarni ishlari har soxada ko'rinadigan bo'ldi. Ular ishlab oylasi uchun harakat qiladigan bo'ldilar va shunga shu davirda majbur ham edilar. Shu boyisdan savetlar o'z ko'zlagan maxsadlariga yitdilar. Ularni maxsadlarini yuqorida ko'rsatganimizdek ularni ko'rsatgan sabablari ham hujum boshlanishiga turtgi bo'lib ketdi. Ularni savet hukumatini esa maxsadlariga erishush uchun esa ular shu yo'lni tanladilar va ayollar masalasiga borib taqadilar. SHu tariqa hujum harakati boshlanib ketdi ular maxsdlari yo'lida ayollarni parajisini tashlatib o'qishga jalb qilib ishga jalb qilib maxsadlariga erishdilar va sanoat ishtimoiy hayotga tadbih ettilar. Albatta bu oson bo'lmadi. Xalqimiz qattiyat bilan kurashdilar hujum harakati kiltirib chiqargan oqibatlar ham salbiy ham ijobiy oqibatlar edi. Ijobiy tomondan ham SSSR uchun xizmat qildi va qilishi kerak ham edi. Ayollardan ular mexnat uchun foydalanib erkaklarga, dendorlarga tsair o'tqazdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O`zbekiston Respublikasi Konsututsiysi
- 2.Karimov I.A-Tarixiy Xotirasiz kelajak yo`q. T.1992
- 3.Karimov I. A-O`zbekiston o`z istiqlolva taraqqiyot yo`li T. 1992
- 4.Karimov I.A-Yuksak manaviyat yengilmas kuch T.2008
5. Karimov I A-Jamyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatni millat qilishga xizmat etsin T.1998
- 6.Karimov I.A-O`zbekiston mustaqillikka erishish ostanisida T-2010
- 7.Rustambek Shamsuddinov Karimov Sh-O`zbekiston tarixidan materillar, Andijon 2014
- 8.Jo`rayev N.Karimov Sh-O`zbekiston tarixi 2 T.2011
- 9.Mo`minov I.M vkh..-O`zbekiston SSSR-tarixi 3tom
- 10.Nazarov M.X –Turkiston entervensiya va grajdanlar urushi davrida T.1961
- 11.Rahmatov A Shinelli -qizlar qissasi o`zbek xotin qizlar grajdanlar urushidan ko`rsatgan qahramonliklari haqida o`cherklar. T. 1964
12. Alimova I. A Galovnov A.A. O`zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida siyosiy va majburiy taziqi oqibatlari.
13. Po`latov I- Buyuk g`alabada O`zbekistonning hissasi. T. 1974.
14. Lenin V.K O`rta Osiyo va Qozog`iston to`g`risida T.1967
15. Muloqat jurnali 1992. 2- soni.
16. Chingiz Aytmatov- Qoyada qolgan ko`z yoshlar T. 1997. 2-son.
17. To`laganov K- O`zbekiston tarixidan unversall qo`llanma T. 2013.
18. OO`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida O`zbekistonning yangi tarixi. T. 2000.
19. Q.Usmonov. M. Sodiqov- O`zbekiston tarixi (1917-1991). T. 2003.
20. O`zbekiston Respublikasi Enteklapidiyasi.
- 21.www.ziyonet.uz.

